

ATROF- MUHIT MUHOFAZASIDA CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH MUAMMOSI

Vaisova Gulizoda Otaboy qizi

Sobirova Mavluda Rashid qizi

Sultonmaxmudov Dovudbek Dilmurodjon o'g'li

Farg'ona davlat texnika universiteti.

Annotatsiya. Mazkur maqolada atrof muhitni maishiy chiqindilar bilan ifloslanishini oldini olish, atrof-muhitga chiqarib yuborilayotgan chiqindilarni keskin kamaytirish va ularni zararsizlantirish, bugungi kunda chiqindilarni to'g'ri yig'ish, saralash, qayta ishlab chiqarish amaliy qo'llanilishi imkoniyatlari yoritiladi.

Kalit so'zlar. Chiqindisiz texnologiyalar, atrof-muhit muhofazasi, maishiy chiqindilar, resurslarni tejash, zamonaviy texnologiyalar, ifloslanishni oldini olish.

Hozirgi davrdagi global muammolardan biri bu - chiqindilar. Insoniyat tomonidan juda ko'p chiqindilar chiqariladi. Ular atrof-muhitni ifloslantiradi va aholi salomatligi uchun xavf tug'diradi. Chiqindilarni katta qismini ko'mish yoki yoqib yuborish bilan chiqindilardan qutilish mumkin deb o'ylashadi, lekin bu noto'g'ri. Sababi joriy usullar bizning salomatligimiz, xavfsizligimiz, atrof-muhit uchun bir qancha muammolarni keltirib chiqaradi. Sanoat va maishiy chiqindilarning aksariyati hozirda suvlarga oqizdirilishi yoki yoqib yuborilishi holatlarini ko'p uchratamiz. Chiqindilarni yoqish paytida havoga zararli gazlar chiqaradi. Kul shaklida zaxarli qoldiqlarni qoldirdi. Xususan, hozirgi vaqtda chiqindilarni yoqish orqali elektr energiyasi ishlab chiqarish tizimi yaratilmagani, chiqindilarni utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar uchun to'lov tariflari so'nggi 4 yil davomida qayta ko'rib chiqilmagani, bu sohadagi iqtisodiy vaziyatga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani haqida ma'lumot berildi. Ta'kidlash joizki, mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-yanvardagi "Chiqindilar bilan ishlash tizimini takomillashtirish va uning ekologik vaziyatga salbiy ta'sirini kamaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

O'z navbatida, Zishen Long bugungi kunda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayoniga ijobiy baho berib, kompaniya muammolarni hal etishga o'z hissasini qo'shishga tayyor ekanligini ta'kidladi.

Uchrashuv yakunlari bo'yicha Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi va "Shanxay SUS Environment" kompaniyasi o'rtasida chiqindilardan energiya ishlab chiqarish loyihalarini tayyorlash va amalga oshirish bo'yicha hamkorlik memorandumini imzolandi.

Ushbu havfli chiqindilar nafaqat insoniyat balki hayvonot olami uchun ham xavflidir. Chiqindilarni qayta ishlash atrof-muhitni ifloslanishidan asrashning va tabiiy resurslarni tejashning eng samarali yo'llaridan biridir. Chiqindilarni qayta ishlash orqali atmosferaga zararli moddalarning chiqarilishi kamayadi, tuproq va suv resurslari ifloslanishi oldi

olinadi, shuningdek iqtisodiy samaradorlik oshadi. Shu bois chiqindilarni toplash, saralash va zamonaviy qayta ishlash tizimlarini rivojlantirish har bir davlat va jamiyat uchun ekologik xavfsizlikni ta'minlashda asosiy vazifalardan biridir. Zamonaviy chiqindi qayta ishlash texnologiyalarining joriy etilishi va chiqindilarni saralash ma'daniyatining oshirilishi bu muammoni hal qilishda muhim ro'l o'ynaydi. Chiqindilarni noto'g'ri boshqarish ekologik muammolarni kuchaytiradi, shuning uchun noto'g'ri yig'ish saralash va ularni qayta ishlash bo'yicha samarali tizimlar joriy etish dolzarb masala sanaladi. Balki iqtisodiy foyda olish va yangi ish o'rinlarini yaratish imkonini ham beradi. Shu sababli, chiqindilarni qayta ishlash siyosatini rivojlantirish har bir mamlakat uchun strategik ahamiyatga ega. Aholi o'rtasida ekologik ma'daniyatni shakllantirish va chiqindilarni to'g'ri boshqarish borasida targ'ibot ishlarini kuchaytirish zarur. Qayta ishlash va utilizatsiya qilish texnologiyalarini rivojlantirish orqali ekologik muvozanatni saqlash mumkin. Rivojlangan mamlakatlarda chiqindilarni qayta ishlash darajasi yuqori bo'lib, bu ularning ekologik barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Rivojlanayotgan davlatlarda esa bu sohada hali katta imkoniyatlar mavjud. Plastik chiqindilarni qayta ishlash va ularni kamaytirish bugungi kunning eng dolzarb ekologik muammolaridan biridir, chunki ular yillar davomida parchalanmay, tabiatga katta zarar yetkazadi. Chiqindilarni qayta ishlash sohasiga investitsiyalarni ko'paytirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish ekologik barqarorlikni ta'minlash imkonini beradi. Chiqindilarni boshqarishdagi sustkashliklar kelajak avlodlar uchun katta ekologik tahdid tug'diradi. Shuning uchun hozirdan chiqindilarni to'g'ri qayta ishlash imkoniyatini shakllantirish zarur. Yurtimizda poligonlarda chiqindilar to'planishining oldini olish, atrof-muhitga yetkazilayotgan salbiy ta'sirini minimallashtirish, chiqindilarni boshqarish, ularni qayta ishlash sohasini kompleks tizimlashtirish, muqobil energiya olish texnologiyalarini joriy etish va sohaning investitsion jozibadorligini yanada oshirish hamda investitsiyalarni keng jalb qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Xususan, 2025-yil 24-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chiqindilarni qayta ishlash sohasini yanada takomillashtirish hamda kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 56-son Farmoni qabul qilindi. Unga ko'ra, respublikada chiqindilarni qayta ishlash sohasidagi quyidagi asosiy yo'nalishlar belgilandi:

- mavjud qattiq maishiy chiqindi poligonlarini 2030-yilgacha 50 foizga qisqartirish;
- yangidan hosil bo'layotgan chiqindilarni poligonlarga yo'naltirmasdan, maksimal darajada qayta ishlash yoki kuydirish, sohaga sirkulyar iqtisodiyot amaliyotini joriy qilish;
- "Nol chiqindi" tizimi doirasida maishiy chiqindilarni shaharlardan olib chiqish, qayta ishlash va ulardan ekologik toza energiya va boshqa mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan zonalarini tashkil etish.

Shuningdek, 2026-yildan boshlab chiqindi poligonlari Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi taklifiga ko'ra Vazirlar Mahkamasi qaroriga muvofiq tashkil etiladi.

Qolaversa, tizimda chiqindi poligonlari hududida chiqindilarni utilizatsiya qilish va qayta ishlashga ixtisoslashgan sanoat zonalari 30 yil muddatga faoliyat olib borishi belgilandi.

Bundan tashqari, Namangan va Toshkent viloyatlarida qattiq maishiy chiqindilarni termik usulda utilizatsiya qilish (yoqish) bo'yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirish maqsadida qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan sug'oriladigan 19,87 gektar yer uchastkalari qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar toifasidan sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlar toifasiga o'tkaziladi.

Xulosa: Chiqindilarni qayta ishlash orqali energiya ishlab chiqarish texnologiyalari (masalan biogaz, yondirilgan chiqindidan elektr energiyasi olish) ekologik va iqtisodiy foyda berdi. Iqlim o'zgarishining oldini olish uchun karbonat gazining chiqishini kamaytirish muhim, bu esa chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash orqali amalga oshiriladi. Chiqindilarni qayta ishlashdagi asosiy to'siqlardan biri- chiqindi saralash tizimini zaifligi yetarlicha habardor emasligidir. Yosh avlod ekologik ta'lim va chiqindilarni qayta ishlash madaniyatiga o'rgatish kelajakda atrof-muhitni muhofaza qilishning asosiy garovi hisoblanadi. Qishloq xo'jaligida organik chiqindilarni qayta ishlash orqali tuproq unumdorligini oshirish va kimyoviy o'g'itlarga ehtiyojni kamaytirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1." Atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari"- O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, darslik.

2. Islomov M., Shomurodov A.

"Ekologiya va atrof -muhitni muhofaza qilish"- Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2021.

3. Mirzaxmedov M." Chiqindilarni boshqarish va qayta ishlash texnologiyalari"- Toshkent, 2020.